

## GOLISHTINLASHTIRILGAN QORA OLA ZOTIGA MANSUB SIGIRLARNI LAKTATSIYASINING KECHISH XUSUSIYATLARI

**Kenjayev Ruxidin Uroq o'g'li,**

**Norboyev Mardon Berdiyevich,**

**Mavlyanova Munavvarbonu Saidmurod qizi**

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,

chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali

***Аннотация.** При оценке молочной продуктивности коров важно определить изменение количества молока в течение месяцев лактации, что играет важную роль в совершенствовании селекционной работы в дальнейшем. Таким образом, по методике нашего исследования мы наблюдали изменение количества молока у коров, принадлежащих к разным конституциональным типам, в течение месяцев лактации.*

***Annotation.** When assessing the milk productivity of cows, it is important to determine the change in the amount of milk during the months of lactation, which plays an important role in improving breeding work in the future. Thus, according to the methodology of our study, we observed a change in the amount of milk in cows belonging to different constitutional types during the months of lactation.*

***Kalit so'zlar:** golishtinlashtirilgan, sigir, zot, qora ola, seleksiya, laktatsiya, tip, konstitutsiya va sut.*

**Kirish.** Bugungi kunda mamlakatimizda xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida iqtisodiy, tashkiliy, ijtimoiy va siyosiy jihatdan chuqur islohatlar davom etmoqda. Bundan asosiy maqsad muhtaram Prezidentimizning, har tomonlama o'ylagan va ilmiy asoslangan pur ma'no, dono so'zlari bilan aytganda, xalqni, Vatandoshlarimizni xayotda rozi qilish, farovon turmush kechirishiga zamin yaratish, farzandlarimizni

sogʻlom qilib oʻstirishdir. Bir soʻz bilan aytganda aholini oziq-ovqat xavfsizlini taʼminlashdir. Bu ishlarni amalga oshirishda xalq xoʻjaligini ustivor yoʻnalishi hisoblangan qishloq xoʻjaligi va uni muhim boʻgʻini boʻlgan chorvachilik alohida oʻrin tutadi.

Maʼlumki, chorvachilik sohasini asosiy va yetakchi tarmogʻi qoramolchilikdir. Buning sababi aholi isteʼmolidagi sut va sut mahsulotlarini butun dunyoda sigirlar taʼminlaydi. Solishtirish uchun Oʻzbekistonda bu koʻrsatkich deyarli 99 foizga teng.

Goʻsht strukturasi qoramol goʻshti salmoqli oʻrinda turadi va dunyo mamlakatlarida jami yetishtiriladigan goʻshtni 21,0 foizdan koʻprogʻini berib, choʻchqa va parranda goʻshtidan keyingi uchunchi oʻrinni egallagan. Oʻzbekistonda esa barcha ishlab chiqariladigan goʻshtni 67 foizdan ortiqrogʻini aynan qoramol goʻshti tashkil qiladi.

Shuni taʼkidlash lozimki, qoramolchilik tarmogʻini yanada rivojlantirish lozim, buning uchun esa ozuqa bazasini mustahkamlash, naslchilik ishlarini talab darajasida tashkil etish, mahsulot ishlab chiqarishda va uni qayta ishlashda zamonaviy innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish bugungi kun talabidir.

Oxirgi yillarda qoramollarni genofondini yaxshilash va mahsuldorlik boʻyicha genetik potensialini toʻliq yuzaga chiqarish maqsadida: Gollandiya, Germaniya, Polsha, Xitoy, Isroil, Belorusiya, Ukraina, Rossiya va boshqa davlatlardan dunyo genofondiga xos, sut mahsuldorligi bilan mashhur boʻlgan, golshtin zoti hamda mahsuldorligi bilan “yaxshilovchi” sifatida tan olingan qizil choʻl, qora-ola, simmental, flekfix simmental, angler zotlariga mansub naslli qoramollar olib kelingan. Ular ayrim xududlarda sof xolda urchitilsa, asosiy xududlarda chatishtirish ishlarida foydalanilmoqda.

**Golishtinlashtirilgan qora ola zotiga** mansub sigirlarni yangi ekologik va tabiiy-iqlim sharoitiga moslashish jarayoni qanday darajada kechayotganligi hamda sut mahsuldorligini baholashda laktatsiyani oylar kesimida sut miqdorining oʻzgarishini aniqlash muhim ahamiyat kasb etib, kelajakda seleksiya ishlarini takomillashtirishda muhim rol oʻynaydi. Shuning uchun ham izlanishimizning uslubiga binoan turli

konstitutsiya tipiga mansub bo'lgan sigirlarni sut miqdorini laktatsiyaning oylari kesimida o'zgarishini sog'in davrining doimiylik koeffitsientini va sut miqdorining pasayish indeksini o'rganib, uni quyidagi 1-jadvalda xavola etdik.

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, o'rganilgan masalalar bo'yicha olingan natijalar bir xil bo'lmagan va bunda mustahkam konstitutsiya tipiga mansub bo'lgan sigirlar o'z tengqurlari nozik-zich konstitutsiya tipidagi sigirlarni ortda qoldirishgan.

Laktatsiyaning I-oyida olingan sut miqdori I guruh sigirlarida 312,8 kg ga teng bo'lib, laktatsiya davrida olingan jami sutni 6,5 foizini bergan. Bu ko'rsatkich laktatsiyaning keyingi oylarida shunga mutanosib ravishda: 582,2 kg yoki 12,1 foizni, 673,6 kg yoki 14,0 foizni, 640,0 kg yoki 13,3 foizni, 577,4 kg yoki 12,0 foizni, 519,4 kg yoki 10,8 foizni, 490,8 kg yoki 10,2 foizni, 428,2 kg yoki 8,9 foizni, 342,5 kg yoki 7,1 foizni va 245,3 kg yoki 5,1 foizni tashkil qilgan. II tajriba guruhidagi sigirlarning laktatsiyaning oylari kesimida bergan suti ancha yuqori bo'lgan.

**1-jadval**

**Sigirlarning laktatsiyasi mobaynida oylar bo'yicha sut miqdori, sog'in davrining doimiylik koeffitsienti va sut miqdorining pasayish indeksini o'zgarishi to'g'risida ma'lumot (n=10)**

Lakta-siya oylari	Guruhlar					
	I			II		
	Oylar kesimidasut miqdori, kg	Sog'in davrining doimiylik koeffi-sienti	Sut miqdorinin g pasayish indeksi, %	Oylar kesimidasut miqdori, kg	Sog'in davrining doimiylik koeffi-sienti	Sut miqdorining pasayish indeksi, %
I	312,8	100	46,4	336,7	100	46,4
II	582,2	186,1	86,4	626,8	186,2	86,5
III	673,6	115,7	X	725,2	115,7	X
IV	640,0	95,0	95,0	688,9	95,1	95,0
V	577,4	90,2	85,7	621,6	90,3	85,0
VI	519,7	90,0	77,2	559,4	90,0	77,1
VII	490,8	94,4	72,9	528,4	94,5	72,8
VIII	428,2	87,2	63,6	461,0	87,3	63,7

IX	341,5	X	50,7	367,8	X	50,6
X	245,3	X	36,4	264,2	X	36,3
Sog'in davri bo'yicha, kg	4811,7		107,33	5180,0		107,39


Shuni qayd etish joizki, har ikkala tajribadagi sigirlarning eng yuqori oylik sut miqdori ular laktatsiyasining uchinchi oyida kuzatildi va guruhlarda tegishli: 673,6 va 725,2 kg yoki laktatsiya davomida olingan sut miqdorini 14,0 va 14,2 foizini tashkil qildi.

Laktatsiyaning uchinchi oyidan keyin sut miqdorining har ikkala guruh sigirlarida ham bir tekis pasayib borishi kuzatildi. Bizning tadqiqotlarimizda olingan natijalar U.M.Kuchchiev (2006), Sh.K.Amirov (2006), U.Nosirov va boshqalar (2015), B.Ashirov (2016), M.E.Ashirovlar (2017) olgan ma'lumotlarini tasdiqlaydi. Yuqorida nomlari zikr etilgan tadqiqotchilarning barchasi, sigirlarning uchinchi oyidagi sut miqdori laktatsiya davrida olingan sut miqdorini 13,46-14,03 foizni tashkil qilganligini va sigirlar laktatsiyasining bir tekis kechganligini ta'kidlashadi.

Bizning tadqiqotlarimizni natijasi shuni ko'rsatdiki, tajriba guruhlaridagi sigirlarning oylik sut miqdori laktatsiyaning deyarli oltinchi oyida yuqori darajada bo'ldi va undan keyingi oylarda asta-sekinlik bilan pasayishi kuzatildi.

Tajriba guruhlaridagi sigirlarni laktatsiyani uchinchi oyidagi eng yuqori ko'rsatkichi tajribadagi sigirlarni o'ninchi oyiga borib, 36,4 va 36,3 foizgi tushib qolishi aniqlandi. Bu ko'rsatkichlar tajriba guruhidagi sigirlarda konstitutsiya tipidan qat'iy nazar sut miqdorini oylar kesimida bir-tekis o'zgarganligini xarakterlaydi.

Ma'lumki, sigir laktatsiyasining bir tekis kechish xususiyatlarini baholashda, ularning laktatsiya egri chizig'ini o'rganish va tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuni hisobga olgan xolda biz tajribadagi sigirlarning laktatsiya egri chizig'ini oylar kesimida o'rganib, quyidagi 1-rasmda keltirdik.



**1-rasm. Turli konstitutsiya tipidagi sigirlarning laktatsiya egri chizig'ini oylar kesimida o'zgarishi**

1-rasmdan ko'rinishicha tajriba guruhidagi sigirlarning eng yuqori oylik sut miqdori laktatsiyaning uchinchi oyida to'g'ri kelgan, keyingi oylarda asta-sekinlik bilan pasayishi kuzatilgan.

Umum xulosa qilib aytganda, tadqiqotlarimiz natijalari sigirlarning konstitutsiya tiplaridan qat'iy nazar, har ikki guruhda ham laktatsiya davrini bir tekis kechganligini ko'rsatgan.

**Xulosa.** Sigirlarni laktatsiyasini kechish xususiyatlari bir tekisda bo'lgan. Har ikkala guruh sigirlari ham eng ko'p sut berish davri laktatsiyani 3-oyiga to'g'ri kelgan. Tajriba guruhlaridagi sigirlarda bu davrda sut mahsuldorligi tegishlicha: 673,6 va 725,2 kg ga teng bo'lgan. Guruhlararo farq mustaxkam konstitutsiya tipli sigirlar foydasiga 51,6 kg ( $P < 0,05$ ) yoki 7,7 foizni tashkil qilgan.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4243-sonli "Chorvachilik tarmog'ini yanada rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida" Toshkent 2019 yil 18 mart.

2. Nosirov U.N. Qoramolchilik. Toshkent. 2001. 383 b.

3. Nosirov U.N., Nosirov G'.U., Nosirov T.U. Chorvachilikda klassik va zamonaviy seleksiya usullari. Toshkent. 2008. 472 b.

4. Басонов О.А., Воробьева А.В., Тайгунов М.Е., и др. Молочная продуктивность голштинизированного черно-пестрого скота. //«Зоотехния», 2010, №7, с. 15-17.

5. Бащенко М.И., Хмельничний Л.М. Модельный тип молочной коровы. //«Зоотехния», 2005, №3, с. 6-9.